

TASDIQLAYMAN

“O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” DM (“UzTest” DM)
direktori v.b., Ilmiy Kengash raisi
J.Kattaxodjayev
_____ 2025 y.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” (“UzTest”) davlat muassasasi Ilmiy Kengashining 4-son qaroridan

KO‘CHIRMA

Raislik qildi: “UzTest” DM direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, Gaziyeu G.A.

Qatnashdilar: Ilmiy-texnik kengash raisi J.Kattaxodjayev, kengash a‘zosi (PhD) E.Xojiyev (onlayn), (PhD) X.Qodirova, (PhD) A.Ibragimov, (PhD) N.Akbarova, t.f.d., dot. X.Mahmudov, ilmiy kotib (PhD) D.Kuvatov, hamda ilmiy texnik kengashga taklif etilganlar.

Kun tartibi:

1 Akustika sinovlari yo‘nalishida 10 nafar hodimlarni malakasini oshirish maqsadida rivojlangan davlatlardagi nufuzli ilmiy-tadqiqot markazlarida va tajriba laboratoriyalarida o‘qish va stajirovka o‘tash imkoniyatini “El-yurt umidi” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ko‘rib chiqish masalasi

Eshitildi:

Mazkur masala yuzasidan “UzTest” DM ning sinov laboratoriyalar faoliyatini muvofiqalashtirish va rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i A.Yakubjonov tomonidan quyidagilar Ilmiy kengash a‘zolari e‘tiboriga havola etildi. “Elektrotexnika jihozlarning shovqin parametrlarini sinashni belgilovchi laboratoriya” tashkil etish akustika sinovlari bo‘yicha zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, xalqaro standartlarga muvofiq yangi o‘lchov va sinov metcdikalarini amaliyotga joriy qilish, hamda mavjud laboratoriya jihozlaridan samarali foydalanish va yangi texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha tajriba orttirishga xizmat qilishi haqida to‘xtalib o‘tilib, akustika sinovlari yo‘nalishida 10 nafar Slovakiya Respublikasining Peshtyan texnik sinov institutida malaka oshiruvchilar haqida quyidagi ma‘lumotlar (1-jadval) berildi.

1-jadval

T/r	F.I.O.	Ish joyi, lavozimi	Malaka oshirish mavzusi	Davomiy-ligi
1	Rixsiev Saidjon	Sinov laboratoriyalari majmuasi 2-toifali mutaxassisi	Ovoz kuchi va shovqin manbalarining tovush energiyasi darajalarini aniqlash	2 hafta
2	Sobirov Sobir	Sinov laboratoriyalari majmuasi 2-toifali mutaxassisi	Ovoz kuchi va shovqin manbalarining tovush energiyasi darajalarini aniqlash	2 hafta
3	Guluev Emin	Sinov laboratoriyalari majmuasi ish yurituvchisi	Ovoz kuchi va shovqin manbalarining tovush energiyasi darajalarini aniqlash	2 hafta
4	Axmadjonov Abduraxmon	Sinov laboratoriyalari majmuasi ish yurituvchisi	Ovoz kuchi va shovqin manbalarining tovush energiyasi darajalarini aniqlash	2 hafta
5	Kurbanov Azimjon	Andijon filiali bosh mutaxassisi	Ovoz kuchi va shovqin manbalarining tovush energiyasi darajalarini aniqlash	2 hafta
6	Juraev Toxir Xusanovich	Navoiy filiali 2-toifali mutaxassisi	Ovoz kuchi va shovqin manbalarining tovush energiyasi darajalarini aniqlash	2 hafta
7	Sanaev G	Samarqand filiali 1-toifali mutaxassisi	Ovoz kuchi va shovqin manbalarining tovush energiyasi darajalarini aniqlash	2 hafta
8	Kamolov Elbek	Qashqadaryo filiali mutaxassisi	Ovoz kuchi va shovqin manbalarining tovush energiyasi darajalarini aniqlash	2 hafta
9	Mirzaboev Badriddin	Namangan filiali 2-toifali mutaxassisi	Ovoz kuchi va shovqin manbalarining tovush energiyasi darajalarini aniqlash	2 hafta
10	Karimov Javoxir	Xorazm filiali mutaxassisi	Ovoz kuchi va shovqin manbalarining tovush energiyasi darajalarini aniqlash	2 hafta

Xususan, A.Yakubjonov mazkur hodimlar haqida Ilmiy kengash e'tiboriga batafsil ma'lumot berdi.

Muhokamada: Mazkur masala yuzasidan kengash a'zosi X.Qodirova so'zga chiqdi, xorijiy tajriba natijasida laboratoriyalarda akustika sinovlarini o'tkazish usullarini o'zlashtirish, shovqin va vibratsiyani tahlil qilish orqali mahsulot va atrof-muhitdagi shovqin darajasini baholash va uni optimallashtirish, ISO, IEC va boshqa xalqaro standartlarga muvofiq sinov jarayonlarini olib borish, korxona mutaxassislarini xalqaro andozalarga mos bilim va tajribaga erishish, Respublikada akustika sohasidagi tadqiqotlar va mahsulotlar baholash tizimi yangi bosqichga ko'tarishga yo'l ochilishi to'g'risida gapirib o'tdi.

Qaror qabul qilindi:

1.1. Muhokama qilingan masala yuzasidan berilgan ma'lumotlar va Ilmiy kengash a'zolarini muhokamalarini inobatga olib Slovakiya Respublikasining Peshtyan texnik sinov institutida tajriba orttiruvchi akustika sinovlari yo'nalishida 10 nafar malaka oshiruvchilar ro'yxati tasdiqlansin.

1.2. "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" davlat muassasasining akustika sinovlari yo'nalishida 10 nafar hodimini Slovakiya Respublikasining Peshtyan texnik sinov institutida o'qish va stajirovka o'tash imkoniyatini jamg'arma mablag'lari hisobidan qoplash uchun Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasiga murojaat qilinsin.

Ilmiy Kengash kotibi



D. Kuvatov